



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA



НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



JUMAYEV Shohjahon Begimqul o'g'li

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi doktranti
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): JUMAYEV Sh.B. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 62–68.



5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari, ularning o'ziga xos jihatlari, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbiri shakllarining tasnifi hamda prokuror tekshiruvi va monitoringining bir-biridan farqlari, shuningdek, alohida xususiyatlari haqida so'z borgan. O'tkazilgan prokuror tekshiruvlariga doir ayrim rasmiy statistik ma'lumotlar hamda ilmiy tadqiqot doirasidagi ijtimoiy so'rovnoma natijalari keltirib o'tilgan. Bir qator huquqshunos olimlarning fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishilgan hamda ularning qarashlariga nisbatan muallifning shaxsiy ilmiy-nazariy pozitsiyasi keltirib o'tilgan. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddatini to'xtatish masalalari ham yoritilgan. Bir qator davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning tajribasi milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan hamda ayrim nazariy va amaliyotga yo'naltirilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, prokuror nazorati, prokuror nazorati tadbiri shakllari, monitoring, tekshiruv o'tkazish muddatini to'xtatish, tekshiruv o'tkazish muddatini uzaytirish, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati hujjatlari.

ЖУМАЕВ Шохжапон

Старший преподаватель Институт переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
докторант Правоохранительной
Академии Республики Узбекистан
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕР ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются прокурорские проверки исполнения законов, их особенности, классификация форм прокурорского надзора за исполнением законов, а также различия и специфические черты прокурорской проверки и мониторинга. Приведены отдельные официальные статистические данные, касающиеся проведённых прокурорских проверок, а также результаты социологического опроса, проведённого в рамках научного исследования. Вступая в научную дискуссию с мнениями ряда юристов-учёных, автор излагает свою личную научно-теоретическую

позицию по обсуждаемым вопросам. Вопросы, связанные с приостановлением сроков проведения прокурорских проверок по исполнению законов, также освещены. Опыт ряда стран, включая Казахстан, Туркменистан и Кыргызстан, подвергнут сравнительно-правовому анализу с национальным законодательством, а также предложены отдельные теоретические и практико-ориентированные рекомендации.

Ключевые слова: прокурорская проверка исполнения законов, прокурорский надзор, формы мероприятий прокурорского надзора, мониторинг, приостановление срока проведения проверки, продление срока проведения проверки, документы прокурорского надзора за исполнением законов.

SHOKHJAKHON Djumaev

Senior lecturer of Training Institute for lawyers,
PhD student of the Law Enforcement
Academy of Republic of Uzbekistan
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF IMPROVING PROSECUTORIAL SUPERVISION MEASURES OVER THE ENFORCEMENT OF LAWS

ANNOTATION

This article discusses prosecutorial inspections over the enforcement of laws, their specific features, the classification of forms of prosecutorial supervision over law enforcement, as well as the differences and individual characteristics between prosecutorial inspections and monitoring. It also presents certain official statistical data related to conducted prosecutorial inspections and the results of a sociological survey carried out within the scope of the scientific research. The article engages in scientific debate with the views of several legal scholars and presents the author's personal scientific-theoretical position regarding their opinions. Issues related to the suspension of the prosecutor's investigations concerning the enforcement of laws are also highlighted. The experience of several countries, including Kazakhstan, Turkmenistan, and Kyrgyzstan, has been comparatively analyzed with the national legislation, and certain proposals aimed at both theory and practice have been put forward.

Keywords: prosecutorial inspection over the enforcement of laws, prosecutorial supervision, forms of prosecutorial supervision measures, monitoring, suspension of the inspection period, extension of the inspection period, documents of prosecutorial supervision over the enforcement of laws.

Hozirgi kunda fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni yanada rivojlantirish uchun prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan samarali nazorat o'rnatilishi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 100 ta maqsad belgilab qo'yilgan bo'lib, uning 17-maqsadi prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan va unda qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli *prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini* yaratish hamda "Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar" tamoyilini bosh mezoniga aylantirish vazifasi qo'yilgan. Bu esa O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida aks etgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlariga doir huquqiy normalarni ham takomillashtirish zarur va dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida prokuror nazorati tadbiri shakllaridan bo'lgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi va monitoringi o'rtasidagi farqlar va ularning o'ziga xos jihatlari belgilanmagan. Quyida ularning bir-biridan tafovutlari va o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Monitoring tushunchasiga yuridik adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. "Fuqarolik himoyasi" ensiklopediyasida monitoring fuqarolar va iqtisodiyotning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim qarorlarni qabul qilinishiga olib keluvchi jamiyat va atrof muhitni doimiy kuzatish tizimidan iboratdir, deb ta'rif berilgan[1].

E.M.Terexovning ta'kidlashicha, huquqiy monitoring deganda, tegishli subyektlar tomonidan huquqiy amaliyotni takomillashtirish maqsadida huquqiy materiallarni yig'ish va tahlil qilish faoliyati tushuniladi. Shuningdek, huquqiy monitoringning maqsadi – bu huquqiy amaliyotni takomillashtirish uchun huquqiy materiallarni yig'ish va tahlil qilishdir. Huquqiy monitoring obyekti esa normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni talqin qilish aktlari, huquqni qo'llash (amalga oshirish) aktlaridir [2, B.115].

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, amaliyotchi prokuratura xodimi U.A.Axunovning qarashicha, oziq-ovqat xavfsizligiga oid qonunchilik ijrosi ustidan monitoring deganda prokuratura va nazorat idoralari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmasdan turib, olib boriladigan kuzatuvdir. Oziq-ovqat xavfsizligiga oid qonunchilik ijrosi ustidan monitoring va tekshiruvning asosiy farqi tekshirish moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashgan holda o'tkaziladigan nazorat tadbiri bo'lsa, monitoringda tadbirkorlik subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmagan holda o'tkaziladigan nazorat tadbiri tushuniladi [3, B.118].

T.T.Galiyevning fikricha esa, monitoring o'rganilayotgan normativ-huquqiy hujjatning holati qanday o'zgarayotganini aniqlash va aks ettirish imkonini beradi – bu esa, tegishli qonunchilik sohasi, umuman qonunchilik tizimi hamda huquqiy munosabatlarni tartibga solishning o'tgan, hozirgi va kelajakdagi holatini ko'rsatadi[4, B.33].

Y.A.Tixomirov esa huquqiy monitoring haqida fikr bildirar ekan, "huquqiy monitoring – bu boshqaruv, xo'jalik yuritish va boshqa shu kabi jarayonlarning barcha bosqichlarida harakatlanadigan, axborot-tahliliy xarakterga ega bo'lgan dinamik tashkiliy-huquqiy institutdir. U huquqning yuzaga kelishi va amal qilishi bosqichlarining barchasida namoyon bo'ladi"[5, B.485], deb hisoblaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning deyarli barchasida monitoringning asosiy belgisi kuzatuv va tahlil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Bizning fikrimizcha esa, *prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan monitoring* – bu prokuratura organlari tomonidan davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar faoliyatida qonunlarga rioya etilishini doimiy va tizimli ravishda o'rganish, baholash hamda kuzatish orqali qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan nazorat shaklidir. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi hamda monitoringi o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Tekshiruv va monitoring ikki turli nazorat shakli bo'lib, ular maqsadi, metodologiyasi va qo'llanish holatlari bilan ham farqlanadi. Tekshiruvda ko'proq hujjatlar, dalillar asosida aniqlovchi va tahliliy yondashuv bo'ladi. Monitoringda esa raqamlar, indikatorlar va holatni kuzatish orqali baholashga asoslanadi. Shuningdek, tekshiruv – bu nazoratning yakuniy bosqichi bo'lib, xatolik yoki qonunbuzarliklarni aniqlashga qaratilgan. Monitoring esa bu jarayonni kuzatish va real vaqt rejimida baholab borishdir.

Shu kabi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi va monitoringi o'rtasidagi yana bir asosiy farq tekshiruv natijasida muayyan huquqiy ta'sir choralari(intizomiy, ma'muriy javobgarlik choralari) qo'llaniladi, monitoringda esa kuzatuv va tahlil amalga oshirilib, unda subyektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir choralari qo'llanilmaydi. Monitoringda tashkilotga yoki mansabdor shaxsga holat yuzasidan axborot berish uchun axborot xati, aniqlangan holatlar tahlili, statistika va umumiy xulosa aks etgan

tahliliy ma'lumotnoma hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha umumiy takliflar aks etgan tavsiyanoma kabi hujjatlar qo'llaniladi. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari davomida esa "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning V bo'lim 37-moddasida qayd etilgan prokuror nazorati hujjatlari(protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv) tatbiq etiladi.

Shuningdek, prokuror nazoratini qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi tushunchasidan ko'ra kengroq tushuncha deb hisoblaymiz. Boisi, prokuror nazorati prokuror tekshiruvidan boshqa vositalar orqali ham ta'minlanadi (Misol uchun, monitoring, nazorat qiluvchi organlarning qonun buzilishi to'g'risidagi materiallarini ko'rib chiqish, axborot-tahlil faoliyatini yuritish va boshqalar).

Ushbu fikrimizni asoslash uchun ayrim xorijiy davlatlar tajribasi keltirib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xususan, Qozog'iston Respublikasining 2022-yil 5-noyabrda 155-son bilan qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni[6] 17-moddasi birinchi qismida prokuror nazoratining shakllari va chegaralari ko'rsatilgan. Unga ko'ra, prokuror nazorati *qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, qonuniylik holatini tahlil qilish, kuchga kirgan hujjatlarni baholash* orqali amalga oshiriladi.

Amaliyot va ilg'or xorij tajribalaridan kelib chiqib, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlari ham tasniflanishi lozim, deb hisoblaymiz. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbiri monitoring o'tkazish, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, axborot-tahlil faoliyat yuritish, nazorat organlarining qonunbuzilishi to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqish shakllaridan iborat bo'ladi hamda ushbu tasnif O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga kiritilishi lozim, deb taklif qilamiz.

Umuman olganda, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi prokuror nazoratini ta'minlashning muhim va ajralmas qismi sanalib, ushbu tushunchaning mohiyati hamda undan ko'zlangan maqsad borasida aniq to'xtamlarga kelmasdan turib, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o'tkazish samaradorligiga to'liq erishib bo'lmaydi.

Amaldagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari ustidan shikoyat qilish huquqi qayd etilmagan. Ma'lumki, prokuror tekshiruvlari davomida tegishli huquqiy xatti-harakatlar ketma-ketligi amalga oshirilib, mazkur harakatlar qonunga zid bo'lib qolsa, misol uchun, tekshiruv o'tkazishning qonuniy asosi bo'lmasa, uni amalga oshirishning belgilangan muddati o'tib ketsa, tekshiruv uni o'tkazish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilsa qanday yo'l tutilishi aniq belgilanmagan. Ayrim xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tekshiruvlar ustidan shikoyat qilish instituti Qonun darajasida belgilanganiga duch kelishimiz mumkin. Jumladan, Qozog'iston Respublikasining 2022-yil 5-noyabrda 155-VII-son bilan qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunining 19-moddasiga asosan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini tayinlash to'g'risidagi qaror hamda prokuratura xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

Shu kabi, Turkmaniston Respublikasining 2015-yil 2-dekabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni[7] 11-moddasi prokuror nazorati doirasidagi harakatlar va hujjatlar ustidan shikoyat qilish tartibi bo'yicha bo'lib, unga ko'ra, prokuror nazorati doirasidagi harakatlar va hujjatlar (aktlar) bo'yicha shikoyatlar, agar qonun bilan boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, shikoyat qilinayotgan harakat sodir etilgan yoki prokuror hujjati e'lon qilingan kundan boshlab *o'n kun ichida* yuqori turuvchi prokurorga yuborilishi mumkin. Shikoyat qilish bu harakat yoki hujjatning ijrosini to'xtatmaydi. Prokuror o'z vakolatlarini amalga oshirar ekan, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan amalga oshirilayotgan harakat yoki chiqarilayotgan prokuror nazorati hujjati, shuningdek, ular bo'yicha shikoyat qilish tartibi va muddati haqida tushuntirish berishi shart. Yuqori turuvchi

prokuror pastroq lavozimdagi prokurorning harakatlari va hujjatlari bo'yicha berilgan shikoyatni *bir oy muddatda ko'rib chiqadi* va natijalari haqida yozma ravishda shikoyat arizachisiga hamda harakati ustidan shikoyat qilingan prokurorga xabar beradi.

Shuningdek, 2021-yil 10-sentabrda qabul qilingan Qirg'iziston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasiga muvofiq, prokurorning harakatlari va prokuror ta'sir choralari qo'llashga doir hujjatlari ustidan *yuqori turuvchi prokurorga* yoki *sudga* shikoyat qilinishi mumkin. Prokuror talablari yoki prokuror ta'sir chorasini bo'yicha hujjatlar ustidan shikoyat qilish ularning ijrosini to'xtatmaydi. Sud yoki yuqori turuvchi prokuror prokurorning harakatlari yoki ta'sir chorasini qo'llashga doir hujjatlari ustidan murojaatni ko'rib chiqish yakuniga yetgunga qadar, ularning ijro etilishini to'xtatib turishi mumkin. Yuqori turuvchi prokuror fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslarning murojaati asosida yoki o'z tashabbusi bilan, quyi lavozimdagi prokurorning prokuror ta'sir chorasiga doir hujjatini bekor qilishi (qaytarib olishi) mumkin.

Shuningdek, huquqshunos olim A.B.Komilovning "tekshiruv bilan bog'liq prokurorning harakatlari (harakatsizligi) va qarorlariga nisbatan shikoyat qilish tartibi kabi masalalar Qonunning tartibga solish doirasidan to'liq tashqarida qolgan" degan fikrini qo'llab-quvvatlaymiz.

Fikrimizcha, quyidagi hollarda prokuror tekshiruvlari ustidan shikoyat qilish mumkin bo'ladi:

- tekshiruv o'tkazishga asos bo'lmagan yoki maxsus qarorsiz tekshiruv o'tkazilganda;
- tekshiruv muddati buzilganda;
- tekshiruvda vakolatsiz shaxs ishtirok etganda;
- prokuror o'z vakolatini suiiste'mol qilib, tekshiruv doirasidan chetga chiqqanda.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlaridan norozi bo'linganda yuqori turuvchi prokuraturaga yoki sudga shikoyat qilish mumkin bo'lib, shikoyatda quyidagilar ko'rsatilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- shikoyat qilinayotgan organ nomi va tomonlar haqidagi aniq ma'lumotlar;
- huquq buzilgan vaziyat (faktlar bilan);
- shikoyat qiluvchi tayanayotgan asoslar (normativ hujjatlarga havola bilan);
- talablar (aktni bekor qilish, tekshiruv natijalarini noqonuniy deb topish).

Umuman olganda, prokuror nazorati tadbiri shakllari, jumladan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi ustidan yuqori turuvchi prokurorga yoki sudga murojaat qilish instituti O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga ham kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz. Chunki bu tekshiruv qaratilgan obyektlar va mansabdor shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu taklifni amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi 40-moddasida belgilangan "har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega" normasiga mutanosib bo'ladi.

Qayd etib o'tish joizki, tadqiqot davomida mazkur masala yuzasidan prokuratura organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma[8]da ham "Prokuror tekshiruvi ustidan yuqori turuvchi prokuraturaga yoki sudga murojaat qilish huquqini qonunchiligimizda belgilanishi maqsadga muvofiqmi?" deb savol berilganda, respondentlarning jami 5437 nafaridan 3909 nafari, ya'ni 71.8 foizi "Ha, maqsadga muvofiq. Chunki bu tekshiriluvchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga hamda tekshiruvlarning yanada qonuniy va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi" deya javob bergan. Ijtimoiy so'rovnoma natijalari ham keltirilgan taklifning naqadar asoslilikidan dalolat beradi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o'tkazish muddati bilan birga ushbu muddatni

to'xtatish instituti ham kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz. Jumladan, Qozog'iston Respublikasining 2022-yil 5-noyabrda 155-VII-son bilan qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni 18-moddasiga asosan, tekshiruv muddati ekspertizani tayinlash holatlarida, shuningdek xorijiy davlatlardan ma'lumot va hujjatlarni olish zarur bo'lganda, shuningdek tekshiruvga to'sqinlik qiladigan boshqa hollarda to'xtatilishi mumkin. To'xtatib qo'yilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o'tkazish muddatini hisoblash u qayta tiklangan kundan e'tiboran davom etadi.

Fikrimizcha, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o'tkazish muddatini to'xtatishning lozimligi quyidagilarga borib taqaladi:

muayyan sharoitlarda tekshiruvni davom ettirish imkoni bo'lmaganda, ya'ni qonunbuzilish holatlari uchun majburiyatga ega shaxslarning qayerdaligi noma'lum bo'lib qolsa yoki chet elda bo'lib, uni so'roq qilish imkoniyati bo'lmasa;

muhim hujjatlar yoki ma'lumotlar olinishi kutilayotganda, ya'ni ayrim hollarda boshqa tashkilotlardan yoki xorijiy davlatlardan so'ralgan hujjatlar yoki axborotlar tekshiruv uchun muhim bo'ladi va ular bo'lmaganda, tekshiruvni davom ettirish samarasiz bo'lsa;

ekspertiza yoki maxsus tadqiqotlar o'tkazilayotganda, ya'ni tekshiruv natijasi tegishli ekspert xulosasiga bog'liq bo'lsa va bu xulosa uzoq vaqt talab etsa.

Shu bilan bir qatorda, tekshiruv muddatini to'xtatishning *afzalliklari* esa quyidagilardir:

adolatli va chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi, ya'ni shoshma-shosharlik bilan noto'g'ri qarorlar qabul qilinishining oldi olinadi. Vaqt yetishmasligi sababli yuzaki xulosalar chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

huquqiy xatolarning oldi olinadi, ya'ni zarur dalillar, guvohlar yoki hujjatlarni kutib, tekshiruv sifatli o'tkaziladi. Bu esa isbotlash jarayonini yengillashtiradi.

shaxslar huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi, ya'ni tekshiruvni vaqtincha to'xtatish orqali aybsizlik prezumpsiyasi, shaxsiy erkinlik va boshqa konstitutsiyaviy huquqlar buzilmaydi.

tashkilot va davlat manfaatlarini himoya qilinishi, tekshiruvlarni vaqtincha to'xtatish orqali tashkilotlarga zararning oldi olinadi yoki uni undirish choralari puxta rejalashtiriladi.

Shuningdek, prokuratura organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ham "Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddatini to'xtatish asoslari va tartibi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlanishi lozim, deb hisoblaysizmi?" deb savol berilganda, respondentlarning jami 5437 nafaridan 4467 nafari, ya'ni 82.1 foizi "Ha, tegishli asoslari bo'lganda, tekshiruv o'tkazish muddatini to'xtatish – holatni adolatli va chuqur tahlil qilishga va shoshma-shosharlik bilan noto'g'ri qaror qabul qilishning oldini olishga xizmat qiladi" deya javob bergan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlarining tasnifini hamda ushbu tadbirlarning o'ziga xos jihatlari va mazmun-mohiyatini ochib beruvchi ta'riflarni O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga kiritishni taklif qilamiz.

Ikkinchidan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruv va monitoringi o'rtasidagi farqlardan biri tekshiruv – bu nazoratning yakuniy bosqichi bo'lib, xatolik yoki qonunbuzarliklarni aniqlashga qaratilgan. Monitoring esa bu jarayonni kuzatish va real vaqt rejimida baholab borishdir. Shuningdek, tekshiruv moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashgan holda o'tkaziladigan nazorat tadbiri bo'lsa, monitoring esa nazorat obyektining moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmagan holda o'tkaziladigan nazorat tadbiri sanaladi. Shu kabi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruv va monitoringi o'rtasidagi yana bir asosiy farq tekshiruv natijasida muayyan huquqiy ta'sir choralari(intizomiy,

ma'muriy javobgarlik choralari) qo'llaniladi, monitoringda esa kuzatuv va tahlil amalga oshirilib, unda subyektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir choralari qo'llanilmaydi. Ushbu nazorat tadbirlarining o'ziga xos xususiyatlari ham Qonun darajasida tartibga solinishi joiz, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o'tkazish muddati bilan birga ushbu muddatni to'xtatish instituti ham kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz. Ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida muayyan fakti belgilash bilan, shaxslarni turli xil javobgarlikka tortish hamda ularning huquq va erkinliklarini huquqiy ta'sir choralari orqali cheklash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tegishli qonun va kodekslar darajasida tartibga solinganini ko'rishimiz mumkin (Misol uchun, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishning muddatlari "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov muddatlari esa, Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasida qat'iy belgilab berilgan). Shu bois, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish hamda uni to'xtatish va uzaytirish muddatlari ham qonun bilan belgilanishi lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Гражданская защита; Энциклопедия в 4-х томах. Т.II (К-О)-М: ФГБУ ВНИИ ГОЧС (ФЦ), 2015.
2. Терехов Е.М. Мониторинг интерпретационных актов в системе правового мониторинга // Вестник СГЮА. 2017. №2 (115). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/monitoring-interpretatsionnyh-aktov-v-sisteme-pravovogo-monitoringa>.
3. Axunov U.A. Oziq-ovqat xavfsizligiga oid qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalari: Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2025. – B. 118-119. Галиев Т.Т. О правовом мониторинге // Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан. 2014. №1 (33). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-pravovom-monitoringe>.
4. Галиев Т.Т. О правовом мониторинге // Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан. 2014. №1 (33). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-pravovom-monitoringe>.
5. Тихомиров Ю.А. Управление на основе права. – М.: Формула права, 2007. – 485 с.
6. Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni, Elektron manba: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31771762&pos=360;-46#pos=360;-46.
7. Turkmaniston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni, Elektron manba: URL: [https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-\(novaya-redaktsiya\)](https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-(novaya-redaktsiya)).
8. KOMILOV A. B. (2025). Actual problems in the process of regulating prosecutor's inspection over the execution of laws and the ways of eliminating them. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 7(07), 13–20. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume07Issue07-03>.
9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 12-sentabrdagi 7-4520626/25-son xati bilan tasdiqlangan. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume07Issue07-03>.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416